

BADIIY ASARLARGA KO'CHGAN HAYOT SABOQLARI

Baxronova Matluba Axmedovna

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti, o'qituvchi
e-mail: bakhronova.matluba@bk.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek badiiy adabiyotida yozuvchilarning hayot saboqlari asosida yaratilgan asarlardagi kasalliklarning berilishi va ularning tahlili, xususan, O'.Hoshimov, A.Qahhor, E.A.Po, O'Henri kabi adiblarning kasalliklar bilan bog'liq syujetlari yaratilishi yuzasidan fikr yuritiladi

Annotation: This article discusses the presentation and analysis of diseases in English and Uzbek literature based on the life lessons of writers, in particular, the creation of disease-related plots of writers such as U. Hoshimov, A. Kahhor, E.A. Poe, O'Henry.

Аннотация: В данной статье рассматривается представление и анализ болезней в английской и узбекской литературе на основе жизненных уроков писателей, в частности, создание сюжетов о болезнях таких писателей, как О. Хошимов, А. Каххор, Э.А. По, О'Генри.

Kalit so'zlar: roman, psixologik, xarakter, ijod, personaj, ijtimoiy-ma'naviy, ruhiy xastalik

Keywords: novel, psychological, character, creativity, character, socio-spiritual, mental illness

Ключевые слова: роман, психологический, персонаж, творчество, персонаж, социально-духовный, психические заболевания

Adabiyot-bitmas- tunganmas xazina.Undan foydalanish,boyliklarini o'zlashtirish-yuksak fazilat.Yillar o'tgani sari bu noyob xazinaning salmog'i oshib, osori-atiqalar ko'payib boraveradi.

Adiblar ijodida kasallik mavzusi,uning yaralish tarixini o'rganganimizda, aksariyat yozuvchilar o'z hayotlaridan olinganini ko'rishimiz mumkin,xususan, amerikalik yozuvchi O'Henri "The Last Leaf"("So'nggi yaproq") hikoyasini tahlil qiladigan bo'lsak, undagi pnevmoniya kasalligi xotining ushbu kasallikdan vafot etgani bilan bog'lash mumkin, uning xotini esa 1897 yilda pnevmoniyadan vafot etadi. Bu hikoya 1907 yilda yozilganini inobatga olsak, hikoya sevgan insonini ushbu halokatli kasallik tufayli yo'qotishdan ta'sirlanib yozilgan deb aytsa bo'ladi,balki yozuvchi o'z qahramonlarini "o'ldirishni" xoxlamagandir, chunki hikoya bosh g'oyasi- umidsizlikka tushmaslik,hayot uchun kurashish,inson qadri hamda buyuk do'stlikdir. "So'nggi yaproq" - bu pnevmoniya tufayli og'ir kasal bo'lgan kambag'al yosh ayol Jonsining hikoyasidir. Uning fikricha, deraza oldidagi devordagi pechak toki barcha barglarini yo'qotsa, u ham o'ladi. Biroq qo'shnisi, rassom Berman devorga barg chizib, uni aldaydi. Hikoya qahramoni doktor tibbiy muolaja bilan bir qatorda bemorga umid, hayotga muhabbat uyg'otish lozimligini tavsiya qiladi va bu uning dugonasi va san'atda muvaffaqiyatga erisha olmagan rassomning buyuk san'at asarini yaratilishiga turtki bo'ladi.

Toward winter a cold stranger entered Greenwich Village. No one could see him. He walked around touching one person here and another there with his icy fingers. He was a bad sickness. Doctors called him Pneumonia. On the east side of the city he hurried, touching many people; but in the narrow streets of Greenwich Village he did not move so quickly. Mr. Pneumonia was not a nice old gentleman. A nice old gentleman would not hurt a weak little woman from California. But Mr. Pneumonia touched Johnsy with his cold fingers. She lay on her bed almost without moving, and she looked through the window at the wall of the house next to hers. Qish yaqinlashganda, Grinvich qishlog'iga sovuq bir notanish odam kirdi.U ko'zga ko'rinmas edi.Ammo u butun shaharni kezar edi,u aylanib yurib,muzdek barmoqlari bilan goh unga,goh bunga tegar edi.

U yomon kasal edi. Shifokorlar uni

pnevmoniya deb atashdi. Shaharning sharqiy tomonida u ko'p odamlarga tegib, boshqa qishloqlar tomon shoshdi, lekin Grinvich qishlog'ining tor ko'chalaridan ketgisi kelmay sekinlashdi. Janob pnevmoniya yaxshi

keksa janob emas edi, keksa janob Kaliforniyalik zaif ayolga zarar yetkazmaydi. Lekin janob Pnevmoniya Jonsiga sovuq barmoqlari bilan tegdi va to'shakka mixlab qo'ydi, u deyarli qimirlamasdi va faqat derazadan tashqariga qarab yotardi.

Ammo asardagi salbiy obraz "Janob Pnevmoniya" o'z yovuzligini amalga oshirib rassomni hayotdan olib ketadi. Hikoyada kasallik nomi obrazlashtirilgan, ya'ni u salbiy obraz yovuz kuch sifatida yo'lida duch kelgan barchani zararlab, umriga zomin bo'lishi ko'rsatib berilgan, biroq undanda kuchliroq do'stlik, umid kabi tuyg'ular g'olib bo'ladi. Yozuvchi ushbu hikoyani yozib kasallikni tasvirlar ekan, u birinchi navbatda tibbiyot sohasida faoliyat ko'rsatgani hamda bunday bemorlarni tekshirib davolagani uchun, ikkinchidan yaqin insoni shu kasallik bilan bir necha yil kurashgani uchun ushbu hikoyada kasallik badiiy yoritib berilgan.

O'zining mashhurligiga qaramay, O. Genrining so'nggi yillari sog'lig'ining yomonligi, umidsiz moliyaviy kurash va ichkilikbozlik bilan o'tdi.

Yana bir amerikalik yozuvchi Edgar Allan Po ham kasalliklar mavzusiga ko'p murojaat qilib o'z qahramonlarini turli kasalliklardan aziyat chekishi hikoyalarida o'z aksini topgan. Edgar Allan Poning asarlari qorong'u mavzular, zo'ravonlik va psixologik jihatdan beqaror belgilar bilan mashhur. Uning deyarli barcha hikoyalarida kasalliklar, ayniqsa ruhiyat bilan bog'liq kasalliklar, ruhiy buzilishlarni uchratish mumkin, bunga sabab esa yozuvchining murakkab hayot yo'li deya xulosa qilish mumkin, chunki uning tarjimai holini o'rganganimizda uning onasi va xotini sil kasalligidan vafot etgan bo'lsa, o'zi esa bir necha yillar davomida alkogolizmdan qutulolmagan, natijada umrining oxirida ko'chada behush holda topiladi va kasalxonaga yotqiziladi, bir necha kundan so'ng 40 yoshida sirli ravishda vafot etadi. Ammo yozuvchi O'Henridan farqli o'laroq, qahramonlarini, ayol obrazlarini o'lim bilan tugatadi. Buni bir nechta hikoyasida ko'rish mumkin. Xususan "Berenis", "Qora mushuk", "Asherlar uyining qulashi"

hikoyalarida ayol qahramonlar o'limini ko'rish mumkin. "Metzengerstein" o'zining birinchi bir nechta nashrlarida onaning zotiljam kasalligi oqibatida o'limi haqidagi satrni o'z ichiga oladi. Rivoyatchi shunday deydi: "Bu men borishni ibodat qilgan yo'l. Men hamma yaxshi ko'rganlarim o'sha dahshatli kasallikdan halok bo'lishini istardim." Po hali bolaligida uning onasi Eliza Po zotiljam kasalligidan vafot etgan. Uning rafiqasi Virjiniya ham sil kasalligiga chalingan va 1847 yilda vafot etgan. Uning o'limidan so'ng Po kasal bo'lgan xayoliy qahramonlar haqidagi shaxsiy nuqtai nazarini o'zgartirib, kasal ayollarni o'limni orzu qilgan holda ideallashtirgan.

O'zbek adabiyotida ham kasallik obrazlari juda keng yoritilgan. Buni O'tkir Hoshimov asarlarida kuzatish mumkin, chunki "Dunyoning ishlari" qissasi avtobiografik asar bo'lib, adib o'z kechmishlarini qalamga olgan. O'tkir Hoshimov asarlaridagi birdan bir "yorqin buyoq" - bu sof insoniy qadriyatlar, o'zbekona lutf va bag'rikenglik, oila, mahalla-kuy, elat, millat va xalq dardining ifodasidir. Shaxsiy biryoqlamalikni inkor etib, alohida qahramonlar taqdirida butun xalq uchun, millat uchun umumiy bo'lgan muammolarni aks ettira bilish adib asarlarining xalqchiligini ta'minladi. Yozuvchining bolalikdagi kechirgan kasalliklari uning asarlarida o'z aksini topgan

Bolaligimda ko'p kasal bo'lardim: qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojxo'rozgacha ilig'lik turardi... Ayniqsa, tomoq og'rig'i yomon qiynaydi. Oyog'im xaxga tegishi bilan tomog'im og'rishga tushadi. Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman.

"Gilam paypoq" hikoyasida ona o'z jigarbandini kasallik xavfidan xalos qilish uchun har narsaga, hatto jonini berishga ham tayyor. Ona qattiq shamollab qolgan bolasini ko'tarib shosha-pisha "Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o'lib qoladi!" degan tahlika bilan halloslagancha, tabib Hoji buvining uyiga yuguradi. Bola darddan biroz yengil tortgach, o'z sog'lig'ini xavf ostiga qo'ygani - oyog'ini sovuqqa oldirgani ma'lum bo'ladi. Yozuvchi kasallik tarixini, kelib chiqish sabablari va omillarini ko'rsatibgina qolmasdan shu xastalik bilan bog'liq voqealarni ham hikoya qilgan:

Uning oyog'i kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og'riydi. Qo'ni-qo'shnilarahvol so'rasa, ularniyam, o'ziniyam yupatadi. Ha, endi keksalikda, o'rgilay. Lekin onamning oyog' og'rig'i faqat keksalikdan emas. Buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman..... Endi nima qilasiz? Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz, cho'loq bo'lib qolasiz.

Hikoyadagi voqealar rivoji, ularning mazmun-mohiyati, ta'sir kuchi hali bu bilan tugamaydi. O'layotgan bolasi uchun biror najot yo'lini topa olmagan ona qo'shni kampirning maslahati bilan tomoq og'rig'i qiynayotgan o'g'lini qish chillasida poychang ko'chaga olib chiqadi.

Yo'q. Habiba buvi zotiljam bo'p qopti. O'tini yo'qmish. Ko'mir oborib beramiz. Bultur o'zimizning o'tinimiz qolmaganida qanaqa ahvolga tushganimiz esimdan chiqqanmas. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu yil dadam ko'mirni yaxshilab g'amlab qo'ygan edi.

“Dunyoning ishlari” asaridagi bu misollar, ilojsizlik, yordam umidining yo'qligi kitobxon o'quvchini asar qahramoni va uning oilasi bilan birga qayg'urishga, inson bolasining uvul bo'layotganidan nadomat chekishga undaydi.

O'zinga emas, mana bu bolaga olyapman. Eski choponli kishi uf tortdi.

Rangini qarang, bola bechorani! Kasaldan yangi turgan: sil!

Oyim ham, men ham bolaga tikilib qoldik. Hali do'ppisiga qarabman-u, o'ziga qaramagan ekanman. Bola chindan ham rangsiz, katta-katta ko'zlari odamga ma'yus-ma'yus boqardi.

Ko'rinib turibdiki, hayotdagi hodisa hikoyada xiyla keskinlashtirilgan. Yozuvchi fakti bekorga o'zgartirgan, uni atayin keskinlashtirgan emas, u hodisaga o'zgartirish kiritayotganda hayot mantig'iga, badiiyat qonuniyatiga asoslangan, hayot haqiqati mohiyatini mukammalroq, ta'sirchanroq yoritmoqchi bo'lgan. Jaholat hukm surgan sharoitda umr kechirgan, boshiga musibat tushgan, qo'li qisqa, qashshoq bir oilaning nochor ahvolini, fojiali qismatini butun keskinligi bilan ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

“Ko'plar qatori men ham o'z tajribalarim, shaxsiy taassurotlar adabiy asar uchun yeng qimmatli material yekanini tushunib olgunimcha «yozuvchilik»da ko'p sarson bo'lganman. Buni bilib olganimdan keyin bolalik chog'imda ko'rganim odamlar, yoshligimda sodir bo'lgan voqea-hodisalar ko'zinga boshqa tusda ko'rindi. Vino chuqur yerto'lalarda tingani singari o'tmish — kishining xotirasida tinadi; kishining yoshlikda ko'rgan-kechirganlari ko'p yillik vino singari tiniq va kuchli bo'ladi.

Mana shunday o'tmishda ko'rgan-kechirganlarim ko'p hikoyalari va yirik asarlarimdagi yepizodlarga asos bo'ldi, deya yozadi ozbek adabiyoti yirik namoyondasi, hikoyanavis adib Abdulla Qahhor¹. U oz esdaliklarida shunday deydi: “Oddiy gapni aytganda, haqiqatda bo'lib o'tgan voqealardan bir necha bor xuddi shu yo'l bilan foydalandim. «Ming bir jon» degan hikoyamda tasvir etilgan ayol bilan tanish edim. «Ming bir jon» hikoyasi 1956 yilda yozilgan. Asar qahramonlari quyidagilar: jikkakkina kishi, o'ziga juda ham katta ko'k xalatga burkanib olgan, «bu xotinning joni bitta emas, ming bitta» degan Mirrahimov, sakkiz oydan beri palatadan chiqmay yotgan, o'n yildan beri xasta ayol Mastura Alieva, Masturaning eri Akromjon, Hoji aka.

“Men uni kasalxonada ko'rgan edim. U mashhur o'zbek ayoli To'raxon ayaning qizi Jo'raxon edi. Bu ayol o'n yil dard tortib, oxiri vafot etgan. Hikoyada Jo'raxon tuzalib ketadi. Men hikoyada, ehtimol, faktga xilof ish qilgandirman, ammo adolat yuzasidan to'g'ri ish tutdim: hikoyada bu ayol mislsiz mardligi, hayotga muhabbati, azob-uqubatga bardoshiga yarasha «mukofot» oldi, xolos. Demak, yozuvchi asar epizodlarini, kasallikni tasvirlashda hayot haqiqatlari hamda albatta badiiy toqimadan mohirona foydalangan. «Bemor» hikoyasida qattiq og'rib, vafot etgan ayol taqdiri va unga biror yordam berishdan batamom ojiz, qo'li kalta Sotiboldining ahvoli, uyquga to'ymagan, hali aniq shakl olmagan jujuq tilda onaizoriga tuni bilan xudodan shifo tilab chiquvchi «begunoh go'dak» - qizcha holati bayon etilgan. Ona esa har qanday vaziyatda ham o'z bolasini o'ylaydi. Bu hikoyaga «Osmon yiroq, yer qattiq» maqoli epigraf qilib olingan.²

«Bemor» hikoyasida tasvirlangan voqeaga o'xshash hodisa adib hayotida ro'y bergan bo'lib u vaqtda yozuvchi juda kichik, taxminan 5 yoshda bo'lgan. O'sha paytda yarim tunda onasini to'lg'og'I boshlanadi va bunday kezlarda qo'ni-qo'shnidan biron keksa ayol chaqirilar edi. Uning tajribali momo bo'lishi ham shart yemas, qariligining o'zi kifoya qilgan. Shunda qiynalayotgan ayolga tajribali vrach o'rniga kelgan qari kishi yosh bolaning duosi ijobat bo'ladi, deya uyqusiragan bolani uyg'otib duo qildirgan. Hikoyada voqea boshqacharoq. Bir xotin og'ir dardga chalilib, uzoq yotib qoladi. Yeri uni doktorga qaratgani qurbi yetmay,

¹ ziyouz.com/kutubxona/ АБДУЛЛА ҚАҲҲОР. ҲАЁТ ҲОДИСАСИДАН БАДИИЙ ТЎҚИМАГА (1965)

² <https://ilmlar.uz/abdulla-qahhor-hikoyalari-haqida-abdulla-qahhor-ijodi/>

arzon haq oladigan mulla, tabib, qo'shnidan najot kutadi, pirovardnda qo'shni kampirning «Begunoh go'dakning saharlari qilgan duosi ijobat bo'ladi», degan maslahati bilan ish tutishga majbur bo'ladi. U har kuni saharda to'rt yashar qizchasini uyg'otib duo o'rgatardi. Bemor ayol og'irlashib bir kuni sahar payti olamdan o'tadi. Eri qizchasini o'lik yonidan olib boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'onadi, lekin ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qiladi: «Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...» deydi.

«Bemor» mening uchun harholda bolaligimdagi o'sha taassurotlar bilan chambarchas bog'langandir. Men bu gapni taassurotlarni «o'z ichiga olganligi» uchungina yemas, balki o'sha taassurotlarga asoslanganligi uchun ham aytayotibman. Men fakti qayta bichib tikkanimda hayot haqiqatiga qarshi ish qilayotibman deb sira o'ylagan yemasman. Aksincha, hikoyada hayotni o'shanday ko'rsatib to'g'ri qilgan yekanman; besh yasharligimda ayamdan ajralib yetim qolishim o'sha davr sharoitida hech gap yemas yekan. Bu judolik natijasida yuz berishi mumkin bo'lgan butun dahshatlarni va buning barcha oqibatlarini yendi tushunib yetdim. Dahshatli manzaralarning chalasini tasavvur chizib berdi.³

«Anor»da bechora boshqorong'i xotiniga yeng oddiy narsa — ikkitagina anor olib-bergani qurbi yetmaydigan qahramon haqida bo'lib, Turobjon xotining ana shu arzimagan talabini ham qondirishga ojizligidan qiynaladi, alamidan: «boshqorong'i bo'l, yevida bo'l-da!» deydi. Uning bu gapi xotining bag'rini teshib ketadi, «Bu yer yutkur qanday balo yekan! Odamlarday, gulvataga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsam-chi!» deydi. Janjal bo'ladi. Turobjon ko'chaga chiqib ketadi va boyning bog'iga tushib anor o'g'irlab keladi. Bu yerda boshqorong'ilik orqali xalqning nochorligi ko'rsatib berilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozuvchi adiblar hayoti o'rganilganda ularning hayot yo'llari, boshdan kechirganlari asarlarni yozishga turtki bo'lganligini hamda ushbu asarlar jozibadorligi, hayotiyliigi bilan kitobxonlar e'tiboriga tushganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://hordiq.uz/2020/04/06/yozuvchi-nega-yiglaydi-ulmasxon-hoshimovaning-utkir-hoshimov-haqidagi-xotiralaridan/>
2. O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari. M., 2018; "O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. M. Is'hoqov, Toshkent-2006
3. ziyouz.com/kutubxona/ АБДУЛЛА ҚАХҲОР. ҲАЁТ ҲОДИСАСИДАН БАДИИЙ ТЎҚИМАГА (1965)
4. <https://ilmlar.uz/abdulla-qahhor-hikoyalari-haqida-abdulla-qahhor-ijodi/>
5. Quinn, Arthur Hobson. Edgar Allan Poe: A Critical Biography. Johns Hopkins University Press, 1998: 193. ISBN 0-8018-5730-9
6. Baxronova Matluba. (2022). RUHIY KASALLIKLARNING INGLIZ ADABIYOTIDA BERILISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6509637>
7. Baxronova, M. (2021). O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida kasallik turlari va ularning lisoniy tavsifi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 5(5).
8. Mizrabova, J. I., & Baxronova, M. A. (2021). IN THE WORK OF WILLIAM SHAKESPEARE'S 'HAMLET' THE TRANSFER OF THE NAMES OF THE DISEASE IN DIFFERENT TRANSLATIONS. IEJRD-International Multidisciplinary Journal, 6, 95-98.
9. Baxronova Matluba. (2022). RUHIY KASALLIKLARNING INGLIZ ADABIYOTIDA BERILISHI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(3), 433–441

³ ziyouz.com/kutubxona/ АБДУЛЛА ҚАХҲОР. ҲАЁТ ҲОДИСАСИДАН БАДИИЙ ТЎҚИМАГА (1965)